

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI.

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI



O'ZBEK TILI VA UNI O'QITISH METODIKASI KAFEDRASI

O'QITUVCHI NUTQI MADANIYATI
fani bo'yicha

SILLABUS

Bilim sohasi:	100 000 – Ta'lim
Ta'lim sohasi:	110 000 – Ta'lim
Ta'lim yo'nalishi:	60111600 – O'zga tili guruhlarda o'zbek tili

Toshkent-2025

Fan/modul kodi	Fan/modul turi	Umumkasbiy	Ishlab chiqilgan o'quv yili										
O'NM2604	Tanlov	2025/2026											
Semestr	Har bir semestrdaqi modulning nomi	ECTS - Kreditlar	Haftalik dars soatlari	O'quv mashg'ulotlari (soat)					Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)			
				Jami:	Ma'ruza	Seminar	amaliy	laboratoriya					
6	O'qituvchi nutqi madaniyati	4	4	60	30	0	30	0	60	120			
	Jami:	4	4	60	30	0	30	0	60	120			

1. FANNING MAZMUNI

“O'qituvchi nutqi madaniyati” fani talabalariga zamon talablariga mos ravishda pedagogga to'g'ri va ta'sirchan nutq tuzish yo'llarini o'rgatishi, bo'lg'usi mutaxassisni kasbiy faoliyatiga doir nutqning xilma-xil muammolarini amaliy jihatdan tadqiq qilish bo'yicha bilimlar bilan qurollantiradi. Mazkur fan tilshunoslik turkumidagi fanlardan biri bo'lib, nutq madaniyati, uslubshunoslik fanlari bilan bog'liqdir. “O'qituvchining nutq madaniyati” fani tilshunoslikning amaliy asosini tashkil etib, amaliy filologiya mutaxassisligi bo'yicha yetuk kadrlar tayyorlashga xizmat qiladi. Tilshunoslikning mustaqil sohasi sifatida chiroqli va to'g'ri nutq tuzish qonuniyatlari, sirlari, til me'yori, nutq, nutqning sifatleri, nutqiy uslublar, nutqda uchrashi mumkin bo'lgan kamchilik va xatolar, nutqning talaffuziga doir muammolar yuzasidan bahs yuritadi.

Fanni o'qitishdan maqsad talabalarni nutqning uslubiy shakllari, matn turlari va tarkibi, nutq uslublari bilan yaqindan tanishtirish va bilim berishdan iborat.

“O'qituvchi nutqi madaniyati” fanining vazifalari:

- o'zbek adabiy tili me'yori, nutqning uslubiy shakllari, matn turlari va tarkibi, nutq madaniyati tarixini o'rganish, bu sohadaqi dolzarb muammolarni aniqlash;
- nutq madaniyati tarixi, madaniy nutq, unga qo'yiladigan talablar haqida talabalariga ma'lumot berish.

2. FANNI O'QITISH NATIJALARI VA SHAKLLANADIGAN KASBIY KOMPETENSIYALAR

- nutq madaniyati tarixi, Sharq va G'arb olimlari, adiblari, jamoat arboblariining bu boradagi qarashlari haqida tasavvurga ega bo'lishi;
- adabiy til me'yori; madaniy nutqqa qo'yiladigan talablarni bilishi kerak;

- nutq uslublari va nutq madaniyati masalalari; madaniy nutq ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak;
- o'z nuqtai nazarini ilmiy asoslab berishi va bulardan amaliy masalalarni yechishda foydalana bilish malakalariga ega bo'lishi kerak.

3. O'QUV FANI O'QITILISHI BO'YICHA USLUBIY KO'RSATMALAR

“O'qituvchi nutqi madaniyati” fanini o'tishda interfaol metodlar, xususan, og'zaki nutq hamda talaffuz ustida ishlash, analiz, sintez, statistik, husnixat, ijodiy yondashuv, tavsiflash, tasniflash, baholash, komponent tahlil, nutq uslublari doirasida og'zaki va yozma nutqni rivojlantirishga qaratilgan boshqa metod va usullardan foydalaniladi. Dasturda ko'rsatilgan mavzular ma'ruza, amaliy va seminar mashg'ulot shaklida olib boriladi, shuningdek, fanning dolzarb masalalari talabalarga mustaqil ta'lim sifatida o'zlashtirish uchun beriladi. Fanni o'zlashtirishda darslik, o'quv va uslubiy qo'llanmalar, ma'ruza matnlari, tarqatma materiallar, audio-video materiallar hamda texnik vositalardan foydalaniladi. Mashg'ulotlar rivojlantiruvchi, muammoli, hamkorklik, o'yin texnologiyalari va qator metodlari orqali tashkil etiladi. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:

- interaktiv keys-stadilar;
- seminarlar (mantiqiy fiklash, tezkor savol-javoblar);
- guruhlarda ishlash;
- taqdimotlarni qilish;
- individual joyihalar;
- jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun joyihalar.

4. TALABALAR KREDITLARNI OLISH TARTIBI

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrdaqi 824-sonli qarori bilan tasdiqlangan “OTMlarda o'quv jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etish tartibi to'g'risida”gi nizomga asosan “O'qituvchi nutq madaniyati” fanidan VI semestr 120 soat (30 soat ma'ruza, 30 soat amaliy mashg'ulot, 60 soat mustaqil ta'lim) o'quv yuklamasini o'zlashtirgan, fan dasturi (sillabus)da belgilangan baholash tartibiga ko'ra ijobiy baholanib kasbiy kompetensiyalarni yetarli darajada egallagan talabaga VI semestrda 4 kredit beriladi.

Talaba belgilangan ta'lim olish natijalariga erisha olmagan taqdirda kreditlar berilmaydi.

Talabalarining bilimlari baholash tartibi O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2018-yil 9-avgustdaqi 19-2018-son buyrug'i bilan tasdiqlangan “Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimlari nazorat qilish va baholash tizimi to'g'risida”gi Nizom talablari asosida belgilanadi.

1. Nazoratlarni amalga oshirish tartibi.

Oraliq nazoratlar: O'tilgan mavzular asosida og'zaki va yozma shaklda o'tkaziladi.

1-oraliq nazorat o'tilgan mavzular asosida og'zaki shaklda o'tkaziladi. 80 daqiqa davomida o'tkazilib, biletida 5ta savol beriladi. Har bir savolga 1 ball qo'yiladi.

Namuna:

1. Nutq madaniyatini egallashning usul va yollari.

2. Ilmiy uslubning o'ziga xosligi.

3. Alisher Navoiy ijodida nutq madaniyati va notiqlik san'ati masalalari.

4. Tilning tasviriy vositalari asosida matn yaratish.

5. Til madaniyati va nutq madaniyati.

2-oraliq nazorat o'tilgan mavzular asosida yozma shaklda o'tkaziladi. 80 daqiqa davomida o'tkazilib, biletida 5ta savol beriladi. Har bir savolga 1 ball qo'yiladi.

Namuna:

1. A.Qodiriy asarlarida o'xshatishlar.

2. Nutq faoliyatining asosiy turlarini ta'riflash.

3. Grammatik uslubiyat: sintaktik vositalardan foydalanish usullari.

4. Aristotel notiqlik san'ati haqida.

5. Tilning tasviriy vositalari asosida matn yaratish.

Yakuniy nazorat: Semestr davomida o'tilgan mavzular bo'yicha og'zaki shaklda o'tkaziladi.

Namuna:

1. Kaykovusning "Qobusnoma" asarida nutq odobi masalasi.

2. O'qituvchi nutqining asosiy kommunikativ sifatleri.

3. Amerika, Yevropa, Markaziy Osiyoning mashhur notiqleri.

4. Nutq madaniyati va adabiy til me'yorlari.

5. Nutq madaniyati va uslubiyat.

Izoh: Talabani oraliq nazorat turi bo'yicha baholashda, uning o'quv mashg'ulotlari davomida olgan baholari inobatga olinadi.

Nazoratlarning o'tkazilishi muddatlari muayyan o'quv yilida tasdiqlangan o'quv jarayoni jadvali asosida tashkil etiladi.

2. Talabalarning bilimi baholash mezonlari:

talaba mustaqil xulosa va qaror qabul qiladi, ijodiy fikr olaydi, mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimni amalda qo'llay oladi, fanning mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda – 5 (a'lo) baho;

talaba mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimni amalda qo'llay oladi, fanning mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda – 4 (yaxshi) baho;

talaba olgan bilimni amalda qo'llay oladi, fanning mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda – 3 (qoniqarli) baho;

talaba fan dasturini o'zlashtirmagan, fanning mohiyatini tushunmaydi hamda fan bo'yicha tasavvurga ega emas deb topilganda – 2 (qoniqarsiz) baho bilan baholanadi.

5. O'QUV MASHG'ULOTLARI VA MUSTAQIL TA'LIM QISMI

6-SEMESTR

1. Ma'ruza mashg'ulotlari

№	Ma'ruza mavzulari	Qisqacha tavsifi (kalit so'zlar)	Soatlar hajmi
1	"O'qituvchining nutq madaniyati" fanining mundariyasi, maqsadi va vazifalari	Nutq madaniyati, fan predmeti, ichki nutq, tashqi nutq, og'zaki va yozma nutq	2
2	Nutq madaniyati va notiqlik san'atining tarixiy ildizlari. G'arbda nutq madaniyati va notiqlik.	G'arb tarixida notiqlikka bo'lgan e'tibor, sarkardalar, davlat boshliqlari faoliyatida notiqlikning ahamiyati. Yunon notiqchilari. Rim notiqchilari	2
3	Sharq va Markaziy Osiyoda nutq madaniyati va notiqlik	Sharq allomalari asarlarida til madaniyati, nutq madaniyati, til odobi, odob va adab, so'zlash san'ati masalalari.	2
4	Nutqning asosiy kommunikativ sifatleri. Nutqning to'g'riligi, nutqning aniqligi	Nutqning to'g'riligi, nutqning aniqligi	2
5	Nutqning asosiy kommunikativ sifatleri. Nutqning mantiqiyliigi, nutqning sofliigi	Nutqning mantiqiyliigi, nutqning sofliigi	2
6	Nutqning asosiy kommunikativ sifatleri. Nutqning boyliigi, nutqning ifodaliliigi	nutqning boyliigi, nutqning ifodaliliigi	2

7	Nutq madaniyati va adabiy til me'yorlari. Nutq madaniyati va uslubiyat	Adabiy til me'yorlari, talaffuz me'yorlari, lug'aviy me'yorlar. Nutq madaniyati va uslubiyat masalalari	2
8	Nutq madaniyati va tilning tasviriy vositalari	Tilning tasviriy vositalari, trop, epitet, o'xshatish, metafora, metonimiya, sinekdoxa, allegoriya, simvol, ironiya, antifraza, sarkazm, antiteza, gradatsiya, ko'p bog'lovchilik-bog'lovchisizlik.	4
9	O'qituvchining nutq texnikasi va nutq madaniyati	Og'zaki nutq texnikasi, yozma nutq texnikasi, o'qituvchining ovozi, o'qituvchining talaffuzi, o'qituvchining diksiyasi.	2
10	Nutq odobi	Nutq odobi mezonlari. Salomlashish. Xayrlashuv. UZR so'rash. Iltimos. Minnatdorchilik.	2
11	Zamonaviy notiqlik	Zamonaviy notiqlik. Nutq madaniyati va notiqlikdagi yangi usullar	2
12	Badiiy asarlarni ifodali o'qish	She'riy asarlarni ifodali o'qish. Nasriy asarlarni ifodali o'qish	4
13	Nutqiy etiket	Nutqiy etiket formulalari	2
		Jami:	30 s.

2. Amaliy mashg'ulotlar

№	Amaliy mashg'ulot mavzulari	Qisqacha tavsifi (kalit so'zlar)	Soatlar hajmi
1	"O'qituvchining nutq madaniyati" fanining mundarijasi, maqsadi va vazifalari	Nutq madaniyati, fan predmeti, ichki nutq, tashqi nutq, og'zaki va yozma nutq	2
2	G'arbda nutq madaniyati va notiqlik. G'arb madaniyati tarixida notiqlik san'atining o'rni	Notiqlik san'ati, notiqlik san'atining ilk davri, notiqlik nazariyasi, ritorika, logograflar, notiqlik turlari. G'arb tarixida notiqlikka bo'lgan e'tibor, sarkardalar, davlat boshliqlari faoliyatida notiqlikning	2

		ahamiyati. Yunon notiqchilari. Rim notiqchilari	
3	Sharq madaniyati tarixida notiqlik san'atining o'rni. Xalq og'zaki ijodida nutq odobi masalalari	Notiq, nutq, voiz, va'z, ta'viza, ilhom nazariyasi, izhor nazariyasi, taqlid nazariyasi, ijtimoiy kelishuv nazariyasi, Xalq og'zaki ijodi janrlari: maqol, matal, tezaytish, topishmoq, ertak	2
4	Sharq allomalari ijodida nutq madaniyati va notiqlik san'ati masalalari.	Notiqlik san'ati, notiqlik san'ati davrlari, notiqlik nazariyasi, ritorika Kaykovus, Ibn Sino, Farobiy, Koshg'ariy, Alisher Navoiy suxandonlik xususida. Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat va Abdulla Qodiriy asarlarida notiqlik, milliy muomala madaniyati masalalari	2
5	Nutqning asosiy kommunikativ sifatleri	Nutqning to'g'riligi, nutqning aniqligi, nutqning mantiqliligi, nutqning sofligi	2
6	Nutqning asosiy kommunikativ sifatleri	Nutqning jo'yalliligi, nutq ifodaliligi	2
7	Nutq madaniyati va adabiy til me'yorlari	Adabiy til me'yorlari, talaffuz me'yorlari	2
8	Adabiy til me'yorlari	morfologik me'yorlar, lug'aviy me'yorlar	2
9	Nutq madaniyati va uslubiyat	Nutq madaniyati va uslubiyat masalalari	2
10	Nutq madaniyati va tilning tasviriy vositalari	Tilning tasviriy vositalari, trop, epitet, o'xshatish, metafora, metonimiya, sinekdoxa, allegoriya, simvol, ironiya, antifraza, sarkazm, antiteza, gradatsiya, ko'p bog'lovchilik-bog'lovchisizlik.	2
11	Badiiy asarda nutq madaniyati masalalari	Badiiy adabiyotda turli nutqiy vositalar, badiiy ifoda vositalari	2
12	O'qituvchining nutq texnikasi. O'qituvchining nutq odobi	Og'zaki nutq texnikasi, yozma nutq texnikasi, o'qituvchining ovozi, o'qituvchining talaffuzi, o'qituvchining diksiyasi. Fikr	2

	ifodalash shakllari, og'zaki nutq, matn, yozma nutq shakllari	
13	Zamonaviy notiqlik	2
14	Badiiy asarlarni ifodali o'qish	2
15	Nutqiy etiketni o'rganish	2
	Jami:	30 s.

3. Mustaqil ta'lim ishlari

Mustaqil ta'lim va mustaqil mashg'ulotlarning asosiy maqsadi – o'qituvchining rahbarligi va nazoratida muayyan tadqiqot ishlarni mustaqil ravishda bajarish uchun bilim va ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirish.

Fan bo'yicha mustaqil ta'limni tashkil etishda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

- amaliy mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rib kelish;
- muayyan mavzu bo'yicha tezis yoki maqola tayyorlash;
- amaliy mavzular bo'yicha ijodiy ishlash;
- belgilangan mavzular bo'yicha taqdimot tayyorlash;
- hujjatchilik tarixi materiallari bilan mustaqil ravishda tanishish, ularni konspektlashtirish;
- hujjatlarni yoza olish ko'nikmasini shakllantirish;

Taqdimotlar amaliy mashg'ulotlarda muhokama qilinadi va baholanadi.

№	Mustaqil ta'lim mavzulari	Qaysi o'quv mashg'ulot turiga mos kelishi	Qisqacha tavsifi (kalit so'zlar)	Soatlar hajmi
1	Sharq va G'arb madaniyati tarixida notiqlik san'atining o'rni	Amaliy	Notiqlik san'ati, notiqlik san'atining ilk davri, notiqlik nazariyasi, ritorika, logograflar, notiqlik turlari	10
2	Tilning tasviriy vositalari va nutq madaniyati	Amaliy	Tilning tasviriy vositalari, trop, epitet, o'xshatish, metafora, metonimiya, sinekdoxa, allegoriya, simvol, ironiya, antifraza, sarkazm, antiteza,	10

	gradatsiya, bog'lovchilik-bog'lovchisizlik.	ko'p
3	O'qituvchining nutq odobi	Amaliy
4	Ifodali o'qish	Amaliy
5	O'qituvchi nutqining mantiqiyligi va izchilligini ta'minlovchi vositalar	Amaliy
6	O'qituvchi nutqida kuzatiladigan kamchiliklar	Amaliy
	Jami:	60 s.

6. O'QUV ADABIYOTLARI VA AXBOROT MANBALARI

Asosiy adabiyotlar:

1. Mahmudov N. O'qituvchining nutqi madaniyati (darslik). - Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2007.
2. Rasulov R., Mo'ydinov Q. Nutq va notiqlik sa'nati (o'quv qo'llanma). - Toshkent, 2015.

Qo'shimcha adabiyotlar:

1. Kaykovus. Qobusnoma. - Toshkent: O'qituvchi, 2006.
2. Maksimova V.I., Golubeva A.V. Russkiy yazzyk i kul'tura rechi. - Sankt-Peterburg, 2010.

3. Raupova L. Nutq madaniyati (darslik). – Toshkent: Innovatsiya-ziyo, 2019.

Elektron ta'lim resurslari

1. <https://cyberleninka.ru/article/n/o-qituvchi-nutqi-madaniyati>
2. <https://muhaz.org/1qituvchining-nutq-madaniyati-qituvchi-faoliyatida-muloqot-mad.html>
3. <https://elib.buxdupi.uz/books/BHNPDB6vF119vX7R.pdf>
4. <https://pedved.ucoz.ru/publ/29-1-0-33>
5. <https://credo-new.ru/archives/979>
6. <https://4brain.ru/blog>

7. O'QUV DASTURI HAQIDA MA'LUMOT

O'quv dasturi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va universitet Kengashining 2025-yil " <u>28</u> " dagi " <u>2</u> " -sonli bayoni bilan tasdiqlangan.	
"O'zbek tili va uni o'qitish metodikasi" kafedrasi mudiri, f.f.d., prof.	
S.Muhamedova	 (imzo)
Tuzuvchilar:	
S.Muhamedova	 (imzo)
"O'zbek tili va uni o'qitish metodikasi" kafedrasi mudiri, f.f.d., prof.	
G.Iskandarova	 (imzo)
"O'zbek tili va uni o'qitish metodikasi" kafedrasi katta o'qituvchisi	
Taqrizchilar:	
M.Umurzaqova	 (imzo)
"O'zbek tilshunosligi" kafedrasi dotsenti, DSc.	
Y.Shirinova	 (imzo)
"O'zbek tili va uni o'qitish metodikasi" kafedrasi dots. f.f.b.f.d.(PhD)	

O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i

Kafedra mudiri

Tuzuvchilar

ARM direktori

V. Nazarov
S. Muhamedova
S. Muhamedova
G. Iskandarova
Z. Jumayeva

